



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## No7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 197 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	14
<b>Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov</b>	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli .....	20
<b>Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich</b>	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili .....	26
<b>Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.</b>	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish .....	31
<b>Yuldashov Isomiddin Sidiqov</b>	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
<b>Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi</b>	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху .....	40
<b>Явкачев Шохзод Зайниддин углы</b>	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector .....	49
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi</b>	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
<b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari .....	66
<b>Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich</b>	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	71
<b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане.....	76
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan .....	81
<b>S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari.....	88
<b>Muxamedov Ravshan Zafarovich</b>	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	93
<b>Homidov Baxtiyor Rahimberdievich</b>	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati.....	99
<b>Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li</b>	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash .....	105
<b>Uraqov Shokir Ulashovich</b>	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari.....	112
<b>Istamova Sojida Kaxarovna</b>	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan .....	117
<b>Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna</b>	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari .....	126
<b>Muradov Botir Xayat</b>	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки .....	136
<b>Салимова Юлдуз Исаковна</b>	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance .....	141
<b>Karlibaeva Gulshat</b>	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yoʻllari.....	147
<b>Absamatov Anvar Ergashovich</b>	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
<b>С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева</b>	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» .....	161
<b>Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu</b>	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan .....	169
<b>Nigmatova Malika</b>	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
<b>Sabina Uroкова</b>	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qoʻllanilishi.....	184
<b>Daminova Barno Esanovna</b>	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами .....	189
<b>Бегматов Хусанбек</b>	
Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
<b>Soibov Nozimbek Faxriddin oʻgʻli</b>	



# BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI KORXONA BUXGALTERIYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIKKA ERISHISH

Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li

Renessans ta'lim universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasasi assistenti

ORCID:0009-0004-5199-2537

Email:[soibov22@gmail.com](mailto:soibov22@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ishda korxonada buxgalteriya tizimini raqamlashtirishda bulutli texnologiyalarning tutgan o'rni va ularning ish samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Bulutli xizmatlar yordamida hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni real vaqt rejimida boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan amaliy echimlar va ularning joriy etish natijalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** bulutli texnologiyalar, raqamlashtirish, buxgalteriya tizimi, samaradorlik, avtomatlashtirish, real vaqt, axborot xavfsizligi.

**Abstract:** This paper examines the role of cloud technologies in digitizing enterprise accounting systems and their impact on operational efficiency. It explores opportunities for automating accounting processes, managing data in real time, reducing costs, and ensuring data security. The study presents practical solutions based on modern technologies and highlights the outcomes achieved through their implementation.

**Key words:** cloud technologies, digitization, accounting system, efficiency, automation, real-time data, information security.

**Аннотация:** В данной научной работе рассматривается роль облачных технологий в цифровизации бухгалтерской системы предприятия и их влияние на повышение эффективности работы. Анализируются возможности автоматизации расчетных процессов, управления данными в режиме реального времени, снижения затрат и обеспечения безопасности информации. В исследовании приведены примеры внедрения современных технологических решений и достигнутые результаты.

**Ключевые слова:** облачные технологии, цифровизация, бухгалтерская система, эффективность, автоматизация, реальное время, информационная безопасность.

## KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi korxonalarining barcha faoliyat yo'nalishlariga, xususan, buxgalteriya hisobini yuritish tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamlashtirish jarayoni buxgalteriya tizimining avtomatlashtirilgan, qulay va ishonchli ishlashini ta'minlash orqali korxonaning moliyaviy shaffofligini oshiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi hamda ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda bulutli texnologiyalar asosida ishlovchi buxgalteriya dasturlarining keng qo'llanilishi bu yo'nalishdagi samaradorlikni keskin oshirishga xizmat qilmoqda. Bulutli texnologiyalar foydalanuvchilarga ma'lumotlar bazasiga istalgan joydan, istalgan vaqtda real vaqt rejimida kirish imkonini yaratib, korxonalar faoliyatining tezkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining kamayishi, zaxira nusxalar bilan ishlash qulayligi va axborot xavfsizligi bu texnologiyalarning ustun jihatlaridan sanaladi.

Mazkur ilmiy ishda korxonada buxgalteriya tizimini bulutli texnologiyalar orqali raqamlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari o'rganiladi, ularni joriy etish samaradorligi tahlil qilinadi hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari asoslab beriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bulutli texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, buxgalteriya hisobi sohasida ularning qo'llanilishi bugungi kunda dolzarb



ilmiy-amaliy masalaga aylangan. Tadqiqotchilar ushbu yo'nalishda bir qator nazariy yondashuvlar va amaliy ishlanmalarga asoslangan ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Xalqaro miqyosda Smith & Rupp (2019) o'z ishida bulutli texnologiyalarning kichik va o'rta bizneslar buxgalteriya tizimlaridagi integratsiyasi orqali xarajatlarni kamaytirish va operativlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Ular bulut asosidagi xizmatlar, xususan, SaaS (Software as a Service) modeli orqali foydalanuvchilarning IT infratuzilmasiga bo'lgan ehtiyoji kamayishini va ish samaradorligi ortishini ta'kidlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamlashtirish bo'yicha farmonlari, xususan, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli farmonda davlat va biznes tuzilmalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi belgilanib, bu yo'nalishda axborot tizimlarini avtomatlashtirish muhim omil sifatida qayd etilgan. Ushbu hujjatlar asosida O'zbekistonda ham korxonalarda bulutli buxgalteriya tizimlariga talab oshmoqda.

Mahalliy olimlardan To'raqulov B. va Xodjayev Sh. o'zlarining buxgalteriya hisobining raqamli transformatsiyasiga bag'ishlangan maqolalarida bulutli texnologiyalar asosida ishlaydigan dasturiy vositalarning samaradorlikka ijobiy ta'siri haqida fikr yuritadilar. Ularning fikricha, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar bilan ishlash, soliq hisobotlarini avtomatik shakllantirish va uzoq muddatli arxiv tizimini yaratish raqamlashtirishning muhim afzalliklaridandir.

Shuningdek, KPMG (2021) va PwC (2020) kabi xalqaro audit kompaniyalari bulutli hisob tizimlarining joriy etilishi bilan bog'liq xavfsizlik choralari, normativ-huquqiy bazalar va foydalanuvchi tajribalariga oid tahliliy hisobotlarni chop etgan. Bu hisobotlar raqamlashtirishga oid strategik yondashuvlarni shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va ayniqsa, bulutli texnologiyalarni joriy etish orqali tashkilotlar operativlik, aniqlik va shaffoflik kabi jihatlarda bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishmoqda. Shu bilan birga, axborot xavfsizligi, normativ muvofiqlik va texnik barqarorlik masalalari ham muhim ilmiy muhokama mavzusi bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda korxonada buxgalteriya tizimini raqamlashtirishda bulutli texnologiyalarni qo'llashning samaradorlikka ta'siri o'rganish asosiy maqsad qilib olingan. Tadqiqot obyekti sifatida tijorat korxonalarining buxgalteriya hisobi tizimi tanlangan bo'lib, uning predmeti esa ushbu tizimda bulutli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan raqamlashtirish jarayonlari va ularning natijaviylikka ta'sir darajasini aniqlashdan iboratdir.

Ish davomida bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi. Jumladan, tahlil va sintez usullari yordamida mavjud nazariy manbalar, qonunchilik hujjatlari va xorijiy tajribalar asosida raqamlashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlari va muammolari aniqlandi. Taqqoslash metodi orqali an'anaviy buxgalteriya yuritish shakllari bilan bulutli tizimlar o'rtasidagi asosiy farqlar, ustunliklar va kamchiliklar tahlil qilindi.

Amaliy qismda esa empirik usullar asosida O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan ayrim kichik va o'rta biznes subyektlari misolida bulutli tizimlarni joriy etishdan oldingi va keyingi holat tahlil qilindi. Statik va dinamik ko'rsatkichlar asosida grafik tahlillar olib borilib, samaradorlik darajasidagi o'zgarishlar ko'rsatib berildi.

Bundan tashqari, soha mutaxassislari va buxgalteriya amaliyotchilarining fikr-mulohazalari ekspert baholash usuli orqali umumlashtirildi hamda xulosalar mustahkamlandi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning (KPMG, PwC, Deloitte) tahliliy hisobotlari, ilmiy maqolalar, elektron bazalar hamda amaliyotdagi buxgalteriya dasturlarining (QuickBooks, 1C, Zoho Books va boshqalar) texnik xususiyatlaridan foydalanildi.

Tadqiqot bulutli texnologiyalar orqali buxgalteriya tizimini optimallashtirish va raqamli transformatsiyani amalga oshirishda ilmiy-nazariy asos hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda bulutli texnologiyalarni joriy etish amaliyoti, ularning funksional imkoniyatlari va samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish bugungi kunda oddiy avtomatlashtirishdan chiqib, kompleks boshqaruv strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, buxgalteriya tizimining raqamli transformatsiyasida bulutli texnologiyalarning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. Bulutli buxgalteriya tizimlarining asosiy afzalliklari sifatida real vaqt rejimida ma'lumotlarga kirish va ularni tahlil qilish imkoniyati, dasturiy ta'minot va yangilanishlarga ehtiyoj bo'lmasligi, server infratuzilmasi va texnik xizmat xarajatlarning kamayishi, avtomatlashtirilgan hisobotlar va soliq deklaratsiyalarini shakllantirish, bir nechta foydalanuvchilarning bir vaqtda tizimga ulanib ishlashi, shuningdek, ma'lumotlarning xavfsizligi va zaxira nusxasini muntazam yangilash kabilar ko'rsatilmoqda.

Tadqiqotda O'zbekiston hududida faoliyat yuritayotgan 12 ta kichik va o'rta biznes subyektlari misolida amaliy tahlil o'tkazildi. Ulardan 7 tasi bulutli buxgalteriya tizimlarini (masalan, QuickBooks Online, Zoho Books, 1C:Bulut, SAP Business One Cloud) faol ishlatmoqda, 5 tasi esa hali an'anaviy uslubda buxgalteriya yuritmoqda.



Tahlil natijalariga ko'ra, bulutli tizim ishlatilayotgan korxonalarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tezligi o'rtacha 30–40 foizga oshgan, inson omiliga bog'liq xatoliklar esa 5–6 baravar kamaygan. Real vaqt rejimida ma'lumotlarga kirish imkoniyati menejerlar va buxgalterlar o'rtasidagi axborot oqimini tezlashtirib, qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirgan.

Bulutli texnologiyalar joriy etilgan korxonalarda texnik xizmat ko'rsatish va server infratuzilmasiga sarflanadigan xarajatlar o'rtacha 25–35 foizga qisqargani kuzatildi, bu esa umumiy operatsion xarajatlarning 8–12 foiz qisqarishiga olib kelgan. Buxgalteriya jarayonlari avtomatlashtirilgani sababli hisobotlar aniqroq tayyorlanmoqda, soliq deklaratsiyalari esa o'z vaqtida va to'g'ri shakllantirilmoqda.

Bundan tashqari, korxonalarining aksariyati bulutli xizmatlarda ma'lumotlar avtomatik zaxira qilinishini asosiy ustunlik sifatida e'tirof etmoqda. Bu esa xavf-xatarlarga qarshi chidamlilikni oshirmoqda.

Shuningdek, xorijiy amaliyotlar ham o'rganildi. Masalan, KPMG (2021-yil) hisobotida AQShda kichik biznes korxonalarining 78 foizi bulutli buxgalteriya tizimlariga o'tgan bo'lib, soliq to'lovlaridagi aniqlik darajasi 90 foizdan oshgan. PwC (2020-yil) esa buxgalteriya jarayonining 60 foizi avtomatlashtirilgan korxonalarda auditorlik tekshiruvlari soni ikki baravar kamayganini ko'rsatgan.

Biroq, tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, bulutli texnologiyalarni joriy etishda ayrim cheklovlar mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda internet sifati past bo'lishi real vaqt rejimida ishlashga to'sqinlik qilmoqda, foydalanuvchilarning texnologik savodxonligi pastligi esa dasturlardan to'liq foydalanishga imkon bermayapti.

Shuningdek, axborot xavfsizligiga nisbatan ishonchsizlik korxonalarini ushbu texnologiyalarni joriy etishda ehtiyotkor bo'lishga undamoqda. Shunga qaramay, umumiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bulutli texnologiyalar orqali buxgalteriya tizimini raqamlashtirish korxonalarda operatsion faoliyatni soddalashtiradi, moliyaviy shaffoflikni oshiradi va strategik boshqaruvni samaraliroq amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar faoliyatining barcha yo'nalishlari, jumladan, buxgalteriya hisobi tizimi ham texnologik transformatsiyaga duch kelmoqda. Buxgalteriya jarayonlarining avtomatlashtirilishi, ma'lumotlar bilan tezkor ishlash, soliq majburiyatlarini aniqlik bilan bajarish va axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kundagi asosiy ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Ayniqsa, bulutli texnologiyalarning buxgalteriya tizimiga integratsiyasi ushbu sohadagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida korxonalar ma'lumotlarga istalgan joydan real vaqt rejimida kirish, avtomatik hisobotlar tayyorlash, foydalanuvchilarni yagona tizimda birlashtirish kabi muhim imkoniyatlarga ega bo'lmoqda.

Quyida taqdim etilgan jadval orqali korxonalar buxgalteriya tizimini bulutli texnologiyalar yordamida raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari, texnologik imkoniyatlari va natijadagi samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli tarzda tahlil qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Bulutli texnologiyalar orqali korxonalar buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish

No	Yo'nalish	Bulutli texnologiyalar imkoniyati	Natija (samaradorlik)
1	Ma'lumotlarga real vaqt rejimida kirish	Istalgan joydan va vaqtda tizimga ulanish	Ish unumdorligi oshadi, kechikishlar kamayadi
2	Avtomatik hisobotlar va soliq deklaratsiyalari	Hisobotlar avtomatik shakllantiriladi	Hisobot sifati va aniqligi oshadi
3	Texnik xizmat xarajatlarning kamayishi	Server va IT infratuzilmasiga ehtiyoj kamayadi	Uzoq muddatda xarajatlar kamayadi
4	Inson omiliga bog'liq xatoliklarning kamayishi	Avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar orqali aniqlik oshadi	Xatoliklar soni 5–6 barobar kamayadi
5	Qaror qabul qilish jarayonining tezlashuvi	Ma'lumot almashinuvi tezlashadi	Strategik boshqaruv imkoniyati kuchayadi
6	Ma'lumotlarning avtomatik zaxira qilinishi	Doimiy zaxira nusxalar yaratiladi	Axborot xavfsizligi oshadi
7	Operatsion xarajatlarning qisqarishi	Xarajatlarni raqamli boshqaruv orqali nazorat qilish	Umumiy xarajatlar 8–12% gacha kamayadi
8	Foydalanuvchilarning bir vaqtda tizimga ulanishi	Ko'p foydalanuvchili muhit yaratiladi	Hamkorlik va jamoaviy ish kuchayadi

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, bulutli texnologiyalarni korxonalar buxgalteriya tizimiga joriy etish — buxgalteriya hisobini yuritishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiruvchi omil hisoblanadi. Bulutli tizimlar orqali ma'lumotlarga real vaqt rejimida kirish, avtomatik hisobotlar shakllantirish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarni kamaytirish va inson omiliga bog'liq xatoliklarni minimallashtirish imkoniyati yaratiladi.



Tahlil natijalariga ko'ra, bulutli texnologiyalar nafaqat moliyaviy hisobotlarni tez va aniq tayyorlashga, balki boshqaruv qarorlarini tez va ishonchli qabul qilishga, xarajatlarni optimallashtirishga va axborot xavfsizligini ta'minlashga ham xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun bu texnologiyalar resurslardan samarali foydalanish, jamoaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bois, bulutli buxgalteriya tizimlarini joriy etish zamonaviy korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan muhim strategik yo'nalishdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy iqtisodiy muhitda korxonalar buxgalteriya tizimini bulutli texnologiyalar asosida raqamlashtirish nafaqat texnik-texnologik yangilik, balki boshqaruv samaradorligini ta'minlaydigan strategik yechim hisoblanadi.

Bulutli texnologiyalar orqali buxgalteriya ma'lumotlarini real vaqt rejimida tahlil qilish, avtomatik hisobotlar tayyorlash, soliq majburiyatlarini o'z vaqtida ado etish, inson omiliga bog'liq xatoliklarni minimallashtirish hamda operatsion xarajatlarni kamaytirish imkoniyati mavjud.

Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun resurslardan samarali foydalanish, texnik xizmat xarajatlarini qisqartirish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tahlil qilingan korxonalar misollarida bulutli buxgalteriya tizimlari joriy qilingach, buxgalteriya hisoboti sifati, tezligi va aniqligida sezilarli yutuqlar kuzatildi.

Bundan tashqari, menejment darajasida qaror qabul qilish jarayoni tezlashdi, bu esa umumiy boshqaruv sifatini oshirdi. Shu bilan birga, ayrim cheklovlar ham aniqlangan bo'lib, ular orasida texnologik savodxonlik yetishmasligi, internet infratuzilmasining ba'zi hududlarda sustligi hamda axborot xavfsizligiga nisbatan ishonchsizlik holatlari mavjud.

Bularni inobatga olgan holda, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, bulutli texnologiyalarni joriy etishga oid milliy dasturlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilishi va buxgalteriya tizimlari bilan bog'liq xizmatlarning huquqiy asoslari mustahkamlanishi zarur.

Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun subsidiya va soliq imtiyozlari orqali raqamlashtirish jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar (shifrlash, ko'p bosqichli autentifikatsiya, foydalanuvchi huquqlarini nazorat qilish) kengaytirilishi lozim.

To'rtinchidan, sohaga oid kadrlar malakasini oshirish va texnologik savodxonlikni yuksaltirish maqsadida muntazam seminar-treninglar, onlayn kurslar va sertifikatlash dasturlari tashkil etilishi kerak.

Ushbu takliflar asosida korxonalar buxgalteriya tizimlarining raqamli transformatsiyasini yanada samarali yo'lga qo'yish, iqtisodiyotda shaffoflikni kuchaytirish va biznes muhitda ishonchni mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi. Bulutli texnologiyalarga o'tish — bu zamonaviy raqamli iqtisodiyotda orqada qolmaslik uchun muqarrar strategik yo'nalishdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 5–oktabrdagi PF–6079–sonli “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
2. To'raqulov, B., & Xodjayev, Sh. (2022). Raqamlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobi tizimining transformatsiyasi. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (2), 45–51.
3. KPMG. (2021). The Future of Accounting with Cloud Solutions. Global report. <https://home.kpmg/>
4. PwC. (2020). Digital Transformation and the Role of Cloud Accounting. Annual Industry Review. <https://www.pwc.com/>
5. Smith, A., & Rupp, W. (2019). The impact of cloud computing on financial management in SMEs. *Journal of Accounting and Information Technology*, 35(3), 112–124.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2021). Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent.
7. Deloitte. (2022). Cloud Accounting: A Strategic Perspective. Deloitte Insights. <https://www2.deloitte.com/>
8. Мельников, В.Д., & Савина, И.А. (2020). Облачные технологии в бухгалтерском учете предприятий. Москва: Финансы и статистика.
9. Халимов, И. (2021). Инновационные технологии в системе бухгалтерского учета. *Бухгалтерский учет и аудит*, (4), 38–44.
10. QuickBooks Online. Official Documentation & User Guide. <https://quickbooks.intuit.com>
11. Zoho Books. Cloud Accounting Platform. Product Overview. <https://www.zoho.com/books/>
12. SAP Business One Cloud. Financial Management Capabilities. <https://www.sap.com/products/business-one.html>
13. Karimov, A.A. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalarining buxgalteriya tizimidagi o'rni. *Ilm-fan va innovatsiya*, (1), 60–65.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---